

Dolzarbligini yo'qotgan MA'MURIY NORMALAR

Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida moliyaviy munosabatlarning shakli va mazmuni tubdan o'zgarib bormoqda. Xususan, naqd pul muomalasini qisqartirish hamda to'lovlarni elektron shaklda amalga oshirish davlat moliyaviy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki moliyaviy shaffoflikni ta'minlash, soliq bazasini kengaytirish va soya iqtisodiyotiga qarshi kurashishning samarali huquqiy mexanizmi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.



Mazkur islohotlar sharoitida ma'muriy javobgarlik normalarining zamonaviy talablarga muvofiqligi alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, huquq normalari ijtimoiy munosabatlarni ortdan quvib emas, balki ular bilan hamnafas tarzda rivojlanishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 164-moddasi mazmunini qayta ko'rib chiqish masalasi ilmiy-huquqiy tahlilni talab etadi.

Prezidentning "Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan savdo va xizmat ko'rsatish sohasida naqd pulsiz to'lovlar ulushini 75 foizga yetkazish strategik maqsad sifatida belgilandi. Ushbu farmon doirasida 2026-yil 1-apreldan boshlab ayrim sohalarda to'lovlarni faqat bank kartalari yoki elektron to'lov tizimlari orqali amalga oshirish tartibining joriy etilishi huquqiy tartibga solishning yangi bosqichini boshlab berdi. Ayniqsa, yagona QR-kodli to'lov tizimining joriy etilishi savdo va xizmat ko'rsatish subyektlari uchun to'lov infratuzilmasini standartlashtirish, iste'molchilar uchun esa to'lovlarni amalga oshirish jarayonini soddalashtirishga qaratilgan muhim institutsional yechim hisoblanadi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 164-moddasi savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni belgilaydi. Mazkur moddaning tarkibiy qismlari o'tgan yillarda asosan naqd pul ustuvor bo'lgan iqtisodiy munosabatlar sharoitida shakllangan. Xususan, moddaning yettinchi qismida tovarlar va xizmatlar uchun to'lov shakliga (naqd yoki naqdsiz) qarab narxlarni sun'iy ravishda oshirish yoki pasaytirish ma'muriy huquqbuzarlik sifatida belgilangan. Biroq mazkur norma qabul

qilingan davrdagi iqtisodiy shart-sharoitlar bilan hozirgi vaziyat o'rtasida sezilarli tafovut mavjud.

Adliya vazirligi tomonidan o'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, so'nggi to'rt yil davomida 164-moddaning yettinchi qismi asosida atigi uchta huquqbuzarlik holati qayd etilgan. Bu holat mazkur normaning amalda deyarli qo'llanilmayotganini yoki ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda real ta'sirga ega emasligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, mamlakatda naqd pulsiz to'lovlar infratuzilmasi deyarli to'liq shakllangan. Xususan, umumiy ovqatlanish sohasida 63 mingdan ortiq tadbirkor faoliyat yuritib, ular ixtiyorida 86 mingdan ziyod nazorat-kassa mashinalari mavjud. Aholining ish haqi, pensiya va nafaqalarni naqd pulsiz shaklda olish qamrovi 90 foizdan ortiqni tashkil etadi.

Muomaladagi bank kartalari soni 55 milliondan oshgan bo'lib, har bir fuqaroga o'rtacha 1,5 tadan to'g'ri keladi. Bank kartalari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 1 030 trillion so'mni tashkil etib, shundan 78,1 foizi naqd pulsiz operatsiyalar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Ushbu ko'rsatkichlar to'lov shakliga qarab narxlarni sun'iy ravishda o'zgartirish ehtiyoji amalda mavjud emasligini tasdiqlaydi.

Ma'muriy javobgarlik normasi samarali bo'lishi uchun u ijtimoiy xavfli, keng tarqalgan va davlat aralashuvini talab qiladigan huquqbuzarlikka qaratilgan bo'lishi lozim. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 164-moddasi yettinchi qismi esa mazkur mezonlarga to'liq javob bermaydi.

Birinchiidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida narxlar asosan talab va taklif, ishlab chiqarish xarajatlari hamda raqobat ta'sirida shakllanadi. Ikkinchiidan, naqd pulsiz to'lovlar umumiy qoidaga aylangan bir paytda to'lov shakli narx belgilashning mustaqil omili sifatida namoyon bo'lmaydi. Uchinchiidan, ushbu norma orqali iste'molchilar huquqlarini himoya qilish amalda boshqa, yanada samarali huquqiy mexanizmlar orqali ta'minlanmoqda.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 164-moddasida nazarda tutilgan ayrim huquqbuzarlik tarkiblari, xususan, to'lov shakliga qarab narxlarni sun'iy ravishda o'zgartirish uchun javobgarlik belgilash zamonaviy iqtisodiy munosabatlar sharoitida o'z dolzarbligini yo'qotgan.

Shu bois, bunday normalarni chiqarib tashlash ma'muriy qonunchilikni ixchallashtirish, huquqiy tartibga solishni optimallashtirish va tadbirkorlik faoliyatiga ortiqcha ma'muriy bosimni kamaytirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, davlatning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan strategik maqsadlariga to'liq mos keladi.

Timur KUDIYAROV,

Adliya vazirligi huzuridagi Qonunchilikni tahlil qilish va tartibga solish ta'sirini baholash instituti bo'lim boshlig'i

Prezidentning 2025-yil 26-dekabrda Murojaatnomasida kelgusi yillardagi eng muhim vazifalar belgilab berildi. Unda ekologiya masalasiga alohida e'tibor qaratilib, 2026-yilda amalga oshiriladigan ustuvor yo'nalishlarning beshinchisi "Ekologik muvozanatni ta'minlash, "yashil" energetika va suv resurslaridan oqilona foydalanish" deb belgilandi. Bu suv resurslarini tejash va ulardan samarali foydalanish mamlakat taraqqiyotining strategik yo'nalishlaridan biri ekanini ko'rsatadi.

OQOVA SUVLARDAN FOYDALANISH

*suv resurslarini tejash
imkonini beradi*



Ma'lumki, O'zbekiston geografik va iqlim xususiyatlariga ko'ra suv resurslari cheklangan mamlakatlar qatoriga kiradi. Qishloq xo'jaligi umumiy suv iste'molining asosiy qismini tashkil etadi. Aholi sonining o'sishi va sanoatlashuv jarayonlari esa suvga bo'lgan bosimni yanada kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda ehtiyojni faqat an'anaviy suv manbalari hisobidan qondirish iqtisodiy va ekologik jihatdan samarasiz bo'lib bormoqda.

Murojaatnomada chang-to'zonlarning oldini olish maqsadida Surxondaryoda 10 ming gektar "yashil makon" va Sirdaryoda 84 kilometrli "yashil devor" barpo etilishi rejalashtirilgani ta'kidlandi. Shuningdek, Qoraqalpog'iston, Xorazm, Buxoro va Navoiyda jami 250 ming gektar maydonda daraxt va butalar ekilishi ko'zda tutilgan.

Suv tanqisligi sharoitida ushbu loyihani amalga oshirish uchun suvdan oqilona foydalanish va suvni tejovchi texnologiyalarni qo'llash zarur. Xususan, sug'orish va drenaj tizimlarini qayta tiklash "yashil" hududlarni kengaytirishning muhim sharti sifatida qayd etildi. Bizningcha, suv resurslarini tejashda oqova suvlardan foydalanishga alohida e'tibor qaratish muammoning samarali yechimlaridan biridir. Ko'kalamzorlashtirishda tozalangan oqova suvlardan foydalanish suv ta'minotini barqarorlashtirish va ekologik samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Oqova suv - bu maishiy, sanoat yoki qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanilgan va tarkibida ifloslantiruvchi moddalar mavjud bo'lgan suvdur. Uni tabiiy muhitga qaytarishdan oldin albatta tozalash talab etiladi. Aks holda, u atrof-muhit va inson salomatligiga zarar yetkazishi mumkin.

Oqova suvlar quyidagi manbalardan hosil bo'ladi:

- ✓ maishiy oqova suvlar - uy xo'jaligida ishlatilgan suvlar;
- ✓ sanoat oqova suvlari - ishlab chiqarish jarayonidan keyingi chiqindi suvlar;
- ✓ yomg'ir va qor oqimlari - ko'cha va tomlardan oqib tushadigan suvlar.

Toshkent shahrida kanalizatsiya suvlarini qayta ishlovchi uchta yirik tozalash inshooti mavjud: Bo'zsuv, Salar va Bektemir. Ular orqali bir kunda millionlab kub metr oqova suv tozalanadi. Ushbu suvlar ichimlik uchun yaroqli bo'lmasa-da, ko'kalamzorlashtirish va sug'orishda foydalanish mumkin.

Oqova suvlardan to'g'ri foydalanish quyidagi afzalliklarni beradi:

- ✓ tabiiy suv iste'molini kamaytiradi;
- ✓ tarkibidagi azot va fosfor o'simliklar uchun o'g'it vazifasini bajaradi;
- ✓ kanalizatsiya tizimi yuklamasini pasaytiradi;
- ✓ ekotizimlarga bo'lgan bosimni kamaytiradi.

Oqova suvlardan foydalanish sanitariya va ekologiya organlarining ijobiy xulosasi asosida amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, 2009-yil 23-dekabrda "Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish" normalarining 273-bandida sug'orishda yer usti suvlari bilan bir qatorda qum filtrlarida tozalangan oqova suvlardan foydalanish mumkinligi belgilangan.

Bugungi kunda iqlim o'zgarishi va suv tanqisligi sharoitida oqova suvlarni tozalab, sug'orish maqsadida qayta ishlatishni yo'lga qo'yish ekologik barqarorlik va yashil rivojlanish uchun muhim imkoniyatdir.

Matluba MIRZAABDULLAYEVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti